

UDK: 711

**YOSHLIK VA NAFOSAT SHAHRI NAVOIY RESPUBLIKAMIZNING
YETAKCHI SANOAT MARKAZI**

Xikmatova Baxora

“Shaharsozlik va landshaft arxitekturasi” mutaxassisligi magistranti

Safarova Inobat Achilovna

“Arxitekturaviy loyihalash” kafedrasi o'qituvchi.

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti,

Annotasiya: Ushbu maqola Navoiy shahri respublikamizning yetakchi sanoat markazlaridan biri ekanligi, sanoat shahrining zamonaviy shaharsozlik talablariga to'liq javob berilishi va shahar ekologiyasi, arxitekturasi yoritilgan.

Annotation: This article covers the fact that Navoi city is one of the leading industrial centers of the Republic, fully meets the modern urban planning requirements of the Industrial City, the requirements of urban ecology, architecture.

Kalit so'zlar: Shaharsozlik, sanoat markazi, zamonaviylik, ekologiya, turar joyolar, jamoat, landshaft echimlari, zamonaviy texnika.

Keywords: Urban planning, industrial center, modernity, ecology, residential areas, public, landscape solutions, modern technologies.

Bugungi kunda zamonlar estafetasini mustaqillik O'zbekistanning bunyodkorlari davom ettirmoqdalar. Qudratli zamonaviy texnika, yuksak malakali mutaxassislar qadimiy zaminga qaytadan jon ato etib, bu yerda uziga xos shaharsozlik madaniyatini barpo etmoqdalar. Endilikda ko'z o'ngimizda ertaklarda tasvirlanmish sarob moddiylashadi osmonga bo'y cho'zgan ko'p qavatli kumush rang binolaru yirik sanoat inshootlarini ko'rib, kishining aqli shoshadi, ko'm-ko'k dov-daraxtga burkangan, suvlari sharqiragan favvoralari jonga rohat bag'ishlagan bebafo shahar sizni o'z quchog'iga oladi.

O'l kamiz sanoatining qalbi yoshlik va nafosat shahri Navoiy respublikamizning yetakchi sanoat markazlaridan biriga aylandi: mineral o'g'it, ammiak va nitron sun'iy toiasi ishlab chiqaruvchi «Navoiyazot» birlashmasi, o'simlik dunyosiga dori-darmon yetkazib beruvchi elektrokimyo zavodi, dunyoga o'z oltini bilan tanilgan, mingga yaqin aholi xizmat qilayotgan Navoiy metallurgiya kombinati, viloyatning elektr negizini tashkil etadigan Navoiy GRESi, O'zbekistonidagi eng yirik «Qizil qum sement» aksiyadorlik jamiyatasi va respublika ahamiyatiga molik inshootlarning ro'yxati ana shulardan iborat. [3]

Me'morlar Navoiy shahari loyihasi ustida ishlar ekanlar, uning ko'chalari, maydon va xiyobonlari ko'rkan va so'lim bo'lishiga erishishdan tashqari, ichki

muhitni ham shinam, jozibador chiqishiga harakat qilganlar. Bu jihatdan mahallalarning istiqomat uchun har taraflama qulay va atrof-muhitning kishi bahridilini ochadigan darajada xushchiroy bo'lishini ta'minlaganlar. Me'moriy turli-tuman go'zal shakl va qiyofalarda tiklangan turar joy binolarining orasiga har xil daraxt ko'chatlari o'tqazilib ko'kalamzorlashtirilgan, bolalar o'ynaydigan maydonchalar qurilgan, kattalar xordiq chiqaradigan joylar muhayyo etilgan.

Bu ijodiy yutuqlar uchun me'mor va quruvchilar guruhi: mualliflar A.Korotkov, V.Ivanov, I.Orlov, N.Simonov va muhandis-konstruktor G.Smorodinlar Davlat mukofoti hamda me'morlarning Xalqaro uyushmasi tomonidan sovrin bilan taqdirlандilar. Mustakillikning 10 yillik yubiley i arafasida bu navqiron shaharda yana bir so`lim jor va maydon barpo etildi. Bu majmuada 1200 o'rinnik ochiq amfiteatr, A. Navoiy hazratlarining 9 metrli haykali turli tadbirlar o'tkaziladigan sahna, favvoralar va bog', dam olish uchun mayda me'moriy shakllar bunyod etilgan.

Uning aylana shakli A. Navoiy haykalining markaz o'qi va kirish qismi bilan uzviy bog'langan bo'lib, Navoiy shahridagi dam olish zonasiga qo'shib, yaxlit me'moriy-landshaft ansamblini tashkil etadi. Bir vaqtlar buyuk Alisher Navoiy orzu qilgai go'zal maqsadlar bugun chinakamiga ro`yobga chiqdi. Qudratli sanoat sohibi bu navqiron shahar tobora keskin sur'atlarda o'smoqda. Ulug' bobokalonimiz nomi bilan yuritiladigan shaharning uncha uzoq, bo'limgan tarixi qanchalik nafis bo'lsa, kelajagi o'n chandon go'zaldir. Turli me'moriy ifodadagi turar-joy binolarini tiklash, ulardan turli kompozitsiyalar yaratish bilan birga uylar orasidagi bo'shliqlar yashil maydonlar, o'yin maydonchalari, kattalar uchun dam olish joylari va o'smirlar uchun o'yin maydonchalari obodonlashtirilmoqda.[1] Ko'p qavatli binolardan foydalanish mikrorayonning kompozitsion tuzilishida o'ziga xosligini ko'rsatdi. Baland ko'p qavatli uylar va qiya uzun savdo markazlari noyob, ko'zni qamashtiruvchi san'at va makon yaratadi.

Ko'p qavatli turar-joy binolari viloyat markazlari qanday joylashganligini ko'rsatadi va shu bilan birga aholiga atrofga qulay ko'rinish beradi. Kvartallarda butun ichki maklonni yagona me'moriy kompozitsiyaga birlashtirgan xiyobonlar qurilishi ayniqla keng manzarani namoyish etdi. Kun davomida salqin soyani ta'minlaydigan daraxtlarni ekish kechki dam olish uchun yaxshi sharoit yaratadigan ochiq joylar bilan almashtiriladi. Dekorativ hovuzlar, ariqlar va favvoralar atrofi yam-yashil maysazorlar bilan qoplangan. An'anaviy gidrotexnika inshootlari tarmog'I kanallar sug'oriladigan daraxtlar bilan bir qatorda o'ziga xos kompozitsion bezak bo'lib xizmat qiladi.

Turar - joy binolarining bir nechta guruhlari, ularning turli balandliklari, turli uzunlikdagi binolar, devorlardagi bezaklar, quyosh panellari, engil to'siqlar - bularning barchasi shaharning ichki yaxlitligiga zarur xilma-xillikni berdi. Tabiatning tekisligi me'morlardan unutilmas shahar qiyofasini yaratishga e'tibor qaratishni talab qildi. Binolar shahar chekkasidan markazga ko'tarilishda davom etadi, u erda asosiy

osmono'par bino - viloyat hukumati binosi tumanning asosiy ma'muriy va mafkuraviy poydevori tarkibini to'ldiradi.[2]

Nafaqat Navoiy, balki respublikamizning bo'shma shaharlari ham qadimiy Toshkent, Samarkand, Buxorolar singari kundan-kunga go'zallashib bormoqda. Shaharlar qiyofasida zamonaviy va an'anaviy me'morlik uslublari uyg'unlashib chiroy ochmoqda.

Shaharlar kiyofasining o'zgarib, zamonaviylik kasb etishida O'zbekistan shaharsozlik loyihalash va ilmiy-tekshirish instituti va "Toshboshplan" mutaxassislarining salmoqli hissasi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shaharlar me'morlar yaratgan bosh planlar asosida qurilib, ularning markazlari zamonaviy yirik jamoat binolari, bog'-rog'lar, ansambllar majmuini tashkil etmoqda.[3]

Navoiy o'lmas asarlarida yuksak mahorat va zo'r ilhom bilan kuylagan, oddiy xalqning halol va shodiyona mehnati samarasi sifatida tarannum etgan ertaknamo shaharu qasrlar, tuprog'idan oltin unuvchi vohalar, sersuv anhoru ariqdar, cho'l bafida oynaday yaltiragan lojuvard ko'llar bizning zamonamizda haqqoniyatga aylandi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Kodirova T.F. Architecture of Uzbekistan in the years of independence. T: 2009
2. Askarov Sh. Architecture. Art of Uzbekistan, T., 2001, p. 12-25.
3. Zoxidov P., Kodirova T. Architecture. "Encyclopedia of the Republic of Uzbekistan". T., 1997, b. 551.
4. Gayratovna, I. D., Erkinovna, I. Y. (2022). ARCHITECTURE OF THE MOSQUE OF CENTRAL ASIA AESTHETIC EXPRESSION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 684-687.
5. Gayratovna, Islamova Dilnoza, and Kuchimova Lola. "SAMARKAND HISTORY AND ARCHITECTURE OF HISTORIC COURTYARD HOUSES." (2022): 178-181.